

**GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLAR LAKTATSIYASINING KECHISHI****Qurbonova Shaxnoza Ergashevna***Q.x.f.f.d. (phd),***Gapparov Shovxidin Tajiyevich***Assistent,***Dehqonov Bobur Baxodirovich***Assistent, Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani “Jo‘ra” fermer xo‘jaligida urchitilayotgan Belorussiya seleksiyaga mansub III va undan yuqori tug‘umdagi golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga sigirlar-davri davomiyligining ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha olingan ma‘lumotlar bayon qilingan. Laktatsiyaning kechish jarayoni servis-davri 60-80 kungacha bo‘lgan 1-tajriba guruhidagi sigirlarda boshqa guruhlarga nisbatan bir tekis bo‘lib, laktatsiyaning turg‘unlik koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lishi (69 %) aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** qoramol, zot, sut miqdori, oqsil, yog‘, sut yog‘i chiqimi, oqsil chiqimi, tirik vazn, laktatsiyaning turg‘unlik koeffitsiyenti va xokazo.

**Аннотация.** В статье освещены данные, полученные в результате изучения влияния продолжительности сервис-периода на молочную продуктивность и течению лактации коров голштинской породы Белорусской селекции в условиях фермерского хозяйства «Жура» Пастдаргомского района Самаркандской области. У коров I опытной группы, у которых продолжительность сервис периода составила 60-80 дней отмечены самые высокие удои за лактации и самый высокий коэффициент постоянства лактации (69 %).

**Ключевые слова:** крупный рогатый скот, порода, количество молока, белок, жир, выход молочного жира, выход белка, живая масса, коэффициент постоянства лактации и т.д.

**Annotation.** The article highlights the data obtained as a result of studying the effect of the duration of the service period on milk productivity and the course of lactation of Holstein cows of Belarusian breeding in the conditions of the farm "Zhura" of the Pastdargom district of the Samarkand region. Cows of the first experimental group, in which the duration of the service period was 60-80 days, had the highest milk yield for lactation and the highest coefficient of lactation constancy (69%).

**Keywords:** cattle, breed, milk quantity, protein, fat, milk fat yield, protein yield, live weight, lactation constancy coefficient, etc.

**Kirish.** O‘zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganining birinchi kunlaridanoq xalq xo‘jaligining barcha jabhalarida islohatlar o‘tkazila boshladi. Bu jarayon keyingi 3 yilda yanada takomillashib jadallashdi. XXI asrda dunyo aholisi oldida turgan muammolardan biri oziq-ovqat xavfsizligini saqlash hisoblanadi. Bunda qishloq xo‘jaligini asosiy va ajralmas tarmog‘i bo‘lgan chorvachilikni barqaror ruvojlantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki tarmoqdan olinadigan va aholi turmush tarzini, farovonligini ta‘minlaydigan sut, go‘sht, tuxum, asal, baliq mahsulotlari va ularni qayta ishlashdan olinadigan yuz turga yaqin iste‘mol uchun tayyor bo‘lgan mahsulotlar hamda jun, teri, pat va boshqa xom ashyolar mavjud bo‘lgan muammoni ijobiy hal qilishda muhim o‘rin tutadi [1].

Sigirlarning sut mahsuldorligiga ko‘pgina genetik (kelib chiqishi, zoti, zotdorligi) va paratipik (oziqlantirish, asrash sharoiti, parvarish qilish texnologiyasi) omillar va boshqalar ta‘sir qiladi. Ushbu omillar ichida sigirlarni tuqqandan keyin natijali otalanishgacha bo‘lgan servis-davrining davomiyligi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri hisoblanadi. Servis davrining qisqa bo‘lishi ham, 90 kundan oshib ketishi ham sigirlarning sut mahsuldorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun sigirlar servis davrining optimal muddatlarini aniqlash sigirlar sut mahsuldorligini ko‘paytirishda dolzarb vazifa hisoblanadi [2; 4].

Dunyo mamlakatlarida keng tarqalgan golshtin zotini ko‘pgina xo‘jalik foydali belgilari, xususan: ularning yuqori darajadagi sut mahsuldorligi, uning sifat ko‘rsatkichlari, zotning podani qayta to‘ldirish ko‘rsatkichlari, yuqori mahsuldor podalar yaratish imkoniyatlari, zotning nasl va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari borasida mahalliy olimlardan: Sh.A.Akmalxonov (2007), U.N.Nosirov (2012), M.E.Ashirov (1983, 1994, 2017, 2020), M.X.Dosmuxammedova (2010), U.SH.Ballasov (1999), va xorijiy olimlardan: L.K.Ernst (1974), A.I.Bich (2012), N.I.Strekozov (2006, 2012, 2013), J.G.Loginov (1984), I.M.Dunin (1999, 2010, 2011), P.N.Proxorenko (1986, 2013), V.I.Velikjanin (1975, 1995) va boshqalar tomonidan samarali ilmiy tadqiqot ishlari o‘tkazilgan va olingan daliliy ma‘lumotlar asosida tavsiyanomalar tayyorlanib, ishlab chiqarishga joriy etilgan bo‘lsada, Samarqand vohasi xo‘jalik sharoitida belorussiyadan import qilingan golshtin zotining har xil servis davridagi o‘sish va rivojlanish, sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari o‘rganilmagan.

**Tadqiqot bajarish joyi va uslubi.** Tadqiqotlar Samarqand viloyati Pastro‘m tumanidagi “Jo‘ra” chorvachilik xo‘jaligida olib borildi. Tajriba uchun belorussiya seleksiyasidagi golshtin zotli III va undan katta tug‘umdagi sigirlar servis davri bo‘yicha III guruhga: I guruh servis davri 40-60 kungacha, II guruh servis davri 60-80 kungacha va III guruh servis davri 90 kun va undan yuqori bo‘lgan sigirlar ajratilib ularning laktatsiya davomida bergan sut mahsuldorlik ko‘rsatkichi o‘rganildi.

**Olingan natijalar va uning tahlili.** Tajribadagi sigirlarning urchitilayotgan sharoitga sut mahsuldorligini baholashda ular laktatsiyaning oylari davomida sut miqdorining o‘zgarishini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribadagi sigirlarda sut miqdorining oylar bo‘yicha o‘zgarishini, oylik sog‘im, o‘rtacha kunlik sog‘im va laktatsiyaning turg‘unlik koeffitsiyentini o‘rgandik, uning natijalari 1-jadvalda keltiriladi.

**Tajribadagi sigirlarda sut sog‘imining laktatsiya oylari bo‘yicha taqsimlanishi,  
kg**

Laktatsiya oylari	Guruhlar					
	Nazorat		I tajriba		II tajriba	
	Oylik sog‘im	Kunlik o‘rtacha	Oylik sog‘im	Kunlik o‘rtacha	Oylik sog‘im	Kunlik o‘rtacha
I	522,8	17,4	539,3	18,0	494,4	16,5
II	612,8	20,4	632,2	21,0	579,5	19,3
III	535,7	17,8	552,5	18,4	506,5	16,9
IV	492,8	16,4	508,3	16,9	466,0	15,5
V	428,5	14,3	442,0	14,7	405,3	13,5
VI	407,1	13,6	419,9	14,0	385,0	12,8
VII	385,7	12,8	397,8	13,3	364,7	12,1
VIII	338,6	11,3	349,2	11,6	320,1	10,7
IX	295,7	9,8	305,1	10,2	279,6	9,3
X	265,7	8,8	274,0	9,1	251,2	8,4
Jami	4285,4	14,2	4420,3	14,7	4052,3	13,5
Laktatsiyaning turg‘unlik koeffitsienti	68,9		69,0		68,8	



**1-rasm. Tajribadagi sigirlarining III laktatsiyasiga oylik sut miqdorining laktatsiya egri chizig‘i**

Jadval ma’lumotlaridan shuni aniqladikki, har uchala guruhda ham sigirlarning eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyasining ikkinchi oyida kuzatildi va keyinchalik oylik sut miqdorining bir tekis pasayib borishi ko‘zga tashlanadi.

I guruh sigirlarning ikkinchi oyidagi sut miqdori laktatsiya mobaynidagi sut miqdorining 20,4 foizni, II guruh sigirlarda 21,0 foizni va III guruh sigirlarda 19,3 foizni tashkil etdi. Shuningdek, barcha guruhlarda sigirlarning sog'in davri bir tekis kechganligi ko'zga tashlanadi va laktatsiyaning oltinchi oyigacha yetarli tarzda yuqori darajada bo'lib sakkizinchi oyga borib, asta-sekinlik bilan pasayib boradi.

Tajribadagi sigirlar oylik sut miqdorining bir tekis o'zgarishini ko'rsatib, bu ko'rsatkich laktatsiyaning eng yuqori sog'imi 2-3-oyida bo'lgan va keying oylarida borib eng yuqori so'gimdan 43,4 foizgacha kamaydi.

Laktatsiyaning turg'unlik koeffitsiyenti ham II guruhdagi sigirlarda 69,0 foizni tashkil etib, o'z tengqurlaridan tegishli 0,1-0,2 foizga ustunlik qilgan. Sigirlar laktatsiyasining bir tekis kechish xususiyatlarini baholashda ularning laktatsiya egri chizig'ini o'rganish muhim hisoblanadi [4; 5].

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlaridagi sigirlarning eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyaning uchinchi oyida kuzatilib, keyingi oylarida asta-sekin pasayishi ko'zga tashlandi.

Bizning tajribamizdagi natijalar boshqa olimlar qilgan tajribalariga yaqin bo'ldi masalan: sigirlarning sut mahsuldorligini aniqlashda, K.Eldor fermer xo'jaligida ham bir qancha tajriba ishlari olib borilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatganki, I laktatsiyada eng yuqori oylik sut miqdori uning uchinchi oyida kuzatilgan va u laktatsiyaning o'rtacha sut miqdorining 14,03%-ga barobar bo'lgan. II guruh sigirlarida eng yuqori sut miqdori laktatsiyaning ikkinchi oyida kuzatilib, bu ko'rsatkich laktatsiyadagi o'rtacha sut miqdorining 13,84% ga barobar bo'lganligi aniklangan. III-guruh da xam eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyaning ikkinchi oyida kuzatilib, bu miqdor I laktatsiyadagi sut miqdorining 13,66%-ni tashkil etgan [6].

Tajribadagi sigirlar I laktatsiyasida sog'in davrining doimiylik koeffitsiyenti bo'yicha II guruh sigirlari o'z tengqurlaridan 0,1 yoki 1,8 % yuqori bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bo'yicha III laktatsiyadagi I guruh sigirlar o'z tengqurlari II va III guruh sigirlaridan 7,4 va 8,4 foizga yuqori bo'lgan. Sigirlarning III laktatsiyasida oylik sut miqdori, sog'in davrining doimiylik koeffitsiyentining va sut miqdorining pasayish indeksining o'zgarishini ham o'rganilgan va I guruh sigirlarida eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyasining uchinchi oyida kuzatilib. Bunda I guruhda eng yuqori oylik sut miqdori laktatsiyaning ikkinchi oyida kuzatildi va laktatsiyaning sut miqdorining 14,45% - ga barobar bo'lgan, III guruhda mazkur ko'rsatkich laktatsiyaning ikkinchi oyida kuzatilib, u jami sut miqdorining 15,39% ga barobar bo'lgan [3]. Tadqiqotlar natijalari barcha guruhlarda sigirlarning laktatsiyasidan qat'iy nazar, sog'in davri birttekis kechganligi aniqlandi va ular yaxshi darajadagi sut mahsuldorligini yuzaga chiqargan.

**Xulosalar.** Barcha tajriba guruhlaridagi golshtin zotli sigirlarda laktatsiyaning kechishi me'yoriy darajada bo'lib, sog'im miqdorining eng yuqori ko'rsatkichi laktatsiyaning ikkinchi oyiga to'g'ri keladi. Servis-davrining 60-80 kun davomida bo'lishi laktatsiya davrining turg'un kechishini ta'minlaydi. Bunda ularning laktatsiyadagi sut

sogʻimim eng yuqori (4420,3 kg) boʻlishi taʼminlanadi va sigirlardan bir yilda bir marta buzoq olish imkoniyati vujudga keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada taminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi 5303-sonli farmoni. -Тошкент. 2018 yil 16-yanvar.
2. Akhtamova, M. T., Kurbanova, S. E., Sadikova, C. S., & Gapparov, S. T. Correlation Between Some Economic Traits of Holstein Breed Cows. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE*/.
3. Botir oʻgʻli, X. X., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBADAGI HAYVONLARNING CHIZIQLI OʻLCHAMLARI VA TANA INDEKSLARI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 247-254.
4. Эгамбердиева, З. К., Нарбаева, М. К., Эргашевна, Қ. Ш., & Гаппаров, Ш. Т. (2023). Голштин Зотлисигирларнинг Экстерьер Кўрсаткичлари. *Miasto Przyszłości*, 42, 179-182.
5. Allaberdievich, K. S., & Ergashevna, K. S. (2023, February). Fertility Characteristics of Cows Belonging to Different Selections. In *Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA)* (pp. 94-96).
6. Baxodirovich, D. B., Ravshanovich, J. R. B., & Ergashevna, Q. S. (2023). TAJRIBADAGI SIGIRLARNING PUSHTDORLIK XUSUSIYATLARI. *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, 90-93.
7. Ibragimovich, T. I. (2024). IMPROVING OF PEDAGOGICAL SKILLS OF STUDENTS OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY DURING CONTINUOUS PEDAGOGICAL PRACTICE. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(2), 92-94.
8. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
9. Mamurzoda, K. X. (2024). TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. *JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA*. Taʼlim innovatsiyasi va integratsiyasi, 17(4), 171-175.
10. Ibrohimovna, T. N., & Uktamovich, G. I. (2023). THE COLLOQUIAL SPEECH IN ENGLISH LINGUISTICS. *YANGI OʻZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(1), 76-78.